



## KALSIDOKS-ANTIDIATEZIN PREPARATINI QO‘LLASH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

### TARKIBI VA ISHLAB CHIQRILISH SHAKLI

Dumaloq, ikki tomoni qabariq, bir xil massali, rangi oq yoki och jigarrang, hidsiz tabletkalar. 0,5 gr.dan 60 dona. Himoyalovchi plombali polietilen flakonda yoki blisterda qadoqlangan. (1) – himoyalovchi golografik yorliqli karton o‘ramlar, (2) – qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma.

Xar bir tabletka tarkibida:

Tozalangan tovuq tuxumi puchog‘i 0,3 gr.

- kalsiy 93% ; -fosfor 0,25%;

-magniy 0,55% ; -kaliy 0,08%;

-temir 0,18% ; -natriy 0,03%;

Vitamin D3 1 ME(0,025mkg)

Shakar 0.1 gr.

Kraxmal 0.1 gr.

Guruh: Kalsiy, fosfor va minerallar kompleksi.

### PREPARATNING TA‘SIRI

Organizmدا (suyaklar, tishlar, sochlar va mushaklarda) kalsiy va fosforning yaxshi almashinuviga samarali yordam beradi. Kattalar va bolalar ratsionida kalsiy, fosfor va minerallarning qo‘shimcha manbai.

### QO‘LLASHGA DOIR KO‘RSATMALAR

Kalsiyga yuqori muhtojlik (intensiv o‘shish, sport bilan shug‘ullanish davrida va shu kabi holatlarda);

taomda kalsiy yetishmasligi, balanslanmagan va to‘liq bo‘lmagan ovqatlanish ratsionida (sut yoki sut mahsulotlarni iste‘mol qilmaslik holatlarida); kalsiy almashinuvining buzilishi; suyak to‘qimalari tuzilmasini mustahkamlash va tiklash; raxit (oldini olish va kompleks davolash); tishlarning o‘z vaqtida o‘smasligi, tishlar kariyesi; tirnoqlar va sochlar sinuvchanligi; yosh bolalarda uchraydigan allergiya va diatez; suyaklar sinish holatlarida uning bitish jarayonining me‘yorlashuvi, yoshi kattalarda suyaklarning mo‘rtligi, osteoporoz rivojini oldini olish.

### QO‘LLASH MUMKIN BO‘LMAGAN HOLATLAR: Yo‘q.

### QO‘LLASH USULI VA DOZALARI

| Go‘daklar va 3 yoshgacha bolalar                                  | 3 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan bolalar | Kattalar va 12 yoshdan katta bolalar |
|---|--|--------------------------------------|
| 1 tabletkadan kuniga 2 mahal yoki shifokor tavsiyanomasiga ko‘ra. | 1 tabletkadan kuniga 3 mahal.          | 2 tabletkadan kuniga 2 mahal.        |

Suv, mevali sharbat yoki sut bilan qabul qilinadi.

Tabletkani maydalab (tvorog, yogurt, bo‘tqa, pyure, desert va sh.o‘.) taomlarga qo‘shish mumkin.

Preparatni qaynoq taomlar, choy yoki kofe bilan qo‘shib iste‘mol qilish mumkin emas.

**DAVOLANISH KURSI:** 1 oy.

**NOJO‘YA TA’SIRI**

Nojo‘ya ta’siri kuzatilmagan, aksincha uzoq vaqt qabul qilish holatlarida yaxshi natijaga erishiladi.

**MAXSUS KO‘RSATMALAR**

«Kalsidoks- Antidiatezin» preparatini qabul qilish paytida dozasining me’yordan ortib ketmasligi maqsadida boshqa makro va mikroelementli preparatlarni qabul qilishga zarurat yo‘q.

Qonda va siydikda kalsiy tuzlarining miqdori yuqori bo‘lgan holatlarda ehtiyotkorlik bilan qabul qilish lozim.

Homilador va emizikli ayollar preparatni shifokor tavsiyanomasiga ko‘ra qabul qilishlari mumkin.

**SAQLASH SHAROITI VA YAROQLILIK MUDDATLARI**

Preparat bolalar qo‘li yetmaydigan, yorug‘likdan himoyalangan joyda +2°S dan +25°S gacha haroratda saqlanishi lozim.

Saqlash muddati – 2 yil.

Manzil: 1000011, Toshkent viloyati, Toshkent tumani,

Tel.: +998 (95) 195-59-00

E-mail: [info@anfa.uz](mailto:info@anfa.uz), [www.anfa.uz](http://www.anfa.uz)